

Date: 17th November-2024

PROFILAKTIKA INSPEKTORINING PROFILAKTIK HISOBDA TURGAN SHAXSLAR BILAN ISHLASH FAOLIYATINI TASHKIL ETISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH

Raximjonova Sarvinoz Ali qizi

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiytasi 336-guruh kursanti

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqola mavzusining dolzarbligi shundaki, profilaktika inspektori profilaktik hisobda turgan shaxslar bilan ishlash faoliyatini tashkil etish samaradorligini oshirish yo'nalishlari, bosqichlari, ilg'or xorijiy davlatlar tajribasi hamda tashkiliy huquqiy asoslari, shuningdek, profilaktika inspektorlarining profilaktik hisobda turgan shaxslar bilan ishlash faoliyatini tashkil etish samaradorligini oshirish bo'yicha bir qator takliflar yoritib o'tilgan.

Аннотация: Актуальность темы данной научной статьи заключается в том, что рассмотрены направления, этапы повышения эффективности организации работы инспекторов профилактики с лицами, состоящими на профилактическом учете, опыт передовых зарубежных стран и организационно-правовые основы, а также организация работы инспекторов профилактики с лицами, состоящими на профилактическом учете, выделен ряд предложений по повышению ее эффективности.

Ilmiy maqolaning dolzarbligi: Jamiyatda barqarorlik, tinchlik va osoyishtalikni qaror toptirish, inson huquq va erkinliklariga so'zsiz rioya etilishini ta'minlash mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan yanada rivojlantirish, aholi farovonligini yuksaltirish, huquqiy demokratik davlat qurish bo'yicha amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlardan ko'zlangan maqsadlarga erishishning muhim sharti hisoblanadi.

Mamlakatimizda olib borilayotgan keng ko'lamli islohotlar xalqimiz tomonidan qo'llab-quvvatlanmoqda. Bu o'zgarishlarning dastlabki natijalari aholimiz hayoti va kundalik turmushida o'zining yaqqol ifodasini topmoqda, elyurtimizning ijtimoiy faolligi, ertangi kunga ishonchi o'sib bormoqda. Biz mamlakat hayotiga doir har bir qarorni xalqimiz bilan maslahatlashib, bevosita muloqot asosida qabul qilmoqdamiz. «Xalq davlat idoralariga emas, balki davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak» degan g'oya faoliyatimiz mezoniga aylanmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Ichki ishlar organlarining faoliyati samaradorligini tubdan oshirish, jamoat tartibini, fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilishni ta'minlashda ularning mas'uliyatini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 5005-sonli farmonida esa ichki ishlar organlari faoliyatida mavjud muammo va kamchiliklar ko'rsatilib, ularni bartaraf etishning ustuvor vazifalari belgilab berildi. SHu bilan birga, Huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshiruvchi davlat organlarining ish shakli va uslublari, eng avvalo axborot-



Date: 17th November-2024

kommunikatsiya texnologiyalaridan yetarli darajada foydalanilmayotganligi sababli hozirgi kun talablariga to'liq javob bermasligi ko'rsatib o'tildi.

Huquqbuzarliklar yakka tartibdagi profilaktik hisobga olingan shaxslar bilan ishlash faoliyatining muhim chora-tadbirlaridan biri profilaktik hisobdir. Hozirgi kunda jinoyatchilikka qarshi kurashda deyarli barcha mamlakatlarda profilaktik hisobdan unumli foydalaniladi. To'g'ri, profilaktik hisob turli davlatlarda turlicha qo'llaniladi. Ammo shubhasiz u huquqbuzarliklarning oldini olishda muayyan ijobiy natijalarga erishish imkonini beradi.

Huquqbuzarliklar profilaktikasida profilaktik hisobning ahamiyati quyidagilarda namoyon bo'ladi:

Birinchidan, aniq manzilli profilaktik ta'sir ko'satish imkonini beradi. Bunda aynan kimlar bilan yakka tartibdagi profilaktik choratadbirlarni amalga oshirish oldindan aniq bo'ladi. Huquqbuzarliklar profilaktikasida manzilli ta'sir ko'rsatishning o'ziga xos ustunligi shundaki, bunda aynan o'zining g'ayriijtimoiy xulq-atvori xavfliligi tufayli huquqbuzarlik sodir etish ehtimoli holatida bo'lgan shaxslar bilan ishlanadi. Gap shundaki, sodir etilayotgan huquqbuzarliklar asosan ko'p hollarda ilgari huquqbuzarlik sodir etgan shaxslar tomonidan sodir etiladi. SHu sababli bunday toifadagi shaxslar Huquqbuzarliklar profilaktikasining alohida ob'yekti bo'lishi zarur;

Ikkinchidan, kam kuch sarflab, ko'proq natijalarga erishish imkonini beradi. Huquqbuzarlik sodir etishga moyil bo'lgan shaxslargi nisbatan profilaktik chora-tadbirlarni amalga oshirish orqali ko'proq natijalarga erishish mumkin. CHunki huquqbuzarlik sodir etgan shaxslarning umumiy miqdorida huquqbuzarlik sodir etishga moyil bo'lgan shaxslar katta ulushni tashkil etadi. Boshqacha qilib aytganda huquqbuzarlik sodir etishi mumkin bo'lgan shaxslar oldindan aniqlangan holda ular bilan profilaktik ishlar amalga oshiriladi;

Uchinchidan, bir vaqtning o'zida yakka tartibdagi profilaktikaning boshqa choralarini qo'llash imkonini beradi. Xususan, profilaktik hisobga olingan shaxsga nisbatan profilaktik suhbat, rasmiy ogohlantirish, huquqbuzarliklarning sodir etilishi sabablari va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlar to'g'risida xabardor qilish, ijtimoiy reabilitatsiya qilish va ijtimoiy moslashtirish, majburiy davolanishga yuborish kabilarni amalga oshirish mumkin.

Profilaktika inspektorining profilaktik hisobga olingan shaxslar bilan ishlash faoliyatini o'rganishda xorijiy davlatlar tajribalariga ham alohida e'tibor qaratish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Rossiya Federatsiyasining 2016 yil 23 iyun'dagi N-182-F3 sonli «Rossiya Federatsiyasida jinoyatlarning oldini olish asoslari to'g'risida» gi Qonunning 21-moddasiga ko'ra profilaktik hisob quyidagicha yuritiladi:

«1. Profilaktik hisob huquqbuzarliklar profilaktikasi sub'yektlarining faoliyatini axborot bilan ta'minlash uchun mo'ljallangan. 2. Profilaktik hisobni (ma'lumotlarni to'plash, hisobga olish, qayta ishlash, saqlash va taqdim etish), shu jumladan avtomatlashtirilgan axborot tizimlaridan foydalangan holda yuritish huquqbuzarliklar



Date: 17th November-2024

profilaktikasi sub'yektlari tomonidan o'z vakolatlari doirasida normativ-huquqiy xujjatlarda belgilangan tartib va talablarga muvofiq amalga oshiriladi.

Profilaktik hisobni yuritishda Rossiya Federatsiyasi qonunchiligiga muvofiq profilaktik hisobda bo'lgan shaxs to'g'risidagi shaxsiy ma'lumotlarning maxfiyligi ta'minlanadi.

Profilaktik hisobni yuritishda huquqbuzarliklar profilaktikasi sub'yektlari Rossiya Federatsiyasi qonunchiligiga muvofiq idoralararo so'rovlar orqali, shu jumladan idoralararo elektron hamkorlikning yagona tizimidan foydalangan holda elektron shaklda ma'lumot almashadilar»³².

Qozog'iston Respublikasining 2010 yil 29 aprelda qabul qilingan «Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida» gi Qonunning 28-moddasiga ko'ra profilaktik hisob va nazorat quyidagi shaxslarga nisbatan yuritiladi:

Himoya buyrug'i chiqarilgan;

Hulq-atvoriga nisbatan maxsus talab qo'yilgan;

Ozodlikdan mahrum qilish tarzidagi jazoni o'tashdan shartli ravishda muddatidan ilgari ozod qilish to'g'risida qaror qabul qilingan;

Ma'muriy nazorat o'rnatilgan;

Jamiyatdan ajratish bilan bog'liq bo'lmagan jazo yoki jinoiy-huquqiy ta'sirning boshqa choralari qo'llanilgan bo'lsa.

Hamkorlikning shakllari xususida so'z borganda V.A. Malyutin uni uchga: funksional-tadbir, protsessual, tashkiliy shakllarga ajratsa, ye.V. Kirichyok hamkorlikning huquqiy va nohuquqiy shakllarini ajratib kursatadi. Biroq, hamkorlikning shakllari yetarlicha aks etmaganligi va umumiy xususiyatga egaligi bois ushbu olimlarning tasniflariga to'liq qo'shilib bo'lmaydi.

Ushbu tahlillarga asoslanib, tayanch punkt negizidagi o'zaro hamkorlikni shartli ravishda ikki asosiy shaklga:

a) *o'zaro axborot almashish* ichki ishlar organlarining boshqa soxaviy xizmatlari o'rtasida huquqbuzarliklarni erta aniqlash yoki muayyan axborot o'zaro almashishga aytiladi;

b) faoliyatga doir muayyan chora-tadbirlarni hamkorlikda rejalashtirish, amalga oshirish, natijalarini umumlashtirish, muayyan vazifalarni bajarishga o'zaro yordam berish va kullab-kuvvatlashda namoyon buladigan *amaliy hamkorlikka* kiradi.

Hamkorlikka kirishuvchi sub'yektlar o'rtasidagi munosabatlar jarayonida asosan ma'lumot almashinuvi ko'zga tashlanishi bois o'zaro axborot almashishga hamkorlikning eng ko'p tarqalgan shakli sifatida qaraladi. Axborotni yig'ish, tahlil qilish va o'zaro almashish asosida olingan xulosa ichki ishlar organlari xodimlarining huquqbuzar yoki huquqbuzarlikka moyil bulgan shaxs bilan munosabatiga ta'sir kursatishini inobatga olib, ayrim olimlar axborot olish va uni o'zaro almashishni IIO faoliyatining asosiy texnologiyalaridan biri, deb hisoblaydilar.

Ichki ishlar organlari tayanch punkti va Mahalla huquq tartibot maskanlari negizidagi keng ko'lamlı hamkorlikning asosiy belgilaridan biri uning huquqiy tartibga



Date: 17th November-2024

solinganligidir. Bu uni tashkil etish tartibini mustaxkamlaydi, hamkorlikka kirishuvchilarning mas'uliyatini oshiradi. Shuningdek, ichki ishlar organlarining soxaviy xizmatlari bilan hamkorligi profilaktik hisobga olingan shaxslar bilan ishlash faoliyatini ta'minlashga, profilaktika hisobida turgan shaxslar bilan ishlash hamda ular tomonidan huquqbuzarliklar sodir etilishining oldini olishda muhim ahamiyat kasb etadi.

